

Surxondaryo viloyatida demografik holat

2025-yil yanvar-sentabr oylari uchun

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari
va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2025-yilning 1-oktabr holatiga Surxondaryo viloyatining doimiy aholisi soni 2 994,1 ming kishini tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 2,3 foizga ko'paygan. 2025-yil yanvar-sentabr oylarida tug'ilganlar soni 61,1 ming nafarni, vafot etganlar 9,7 ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish 51,4 ming kishiga teng bo'ldi. Viloyatimizga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar mavjud emas viloyatdan xorijga ko'chib ketganlar soni 22 kishini, qayd etilgan nikohlar 14,0 mingtani, nikohdan ajralishlar 2,4 mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni

2 994,1 *ming kishi*

Tug'ilganlar soni

61,1 *ming kishi*

Vafot etganlar soni

9,7 *ming kishi*

Xorijdan ko'chib kelganlar

- *kishi*

Xorijga ko'chib ketganlar

22 *kishi*

Nikohlar soni

14,0 *ming birlik*

Nikohdan ajralishlar soni

2,4 *ming birlik*

II. Doimiy aholi soni


Surxondaryo viloyatida doimiy aholi soni 2025-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, 2 994,1 ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 66,1 ming kishiga yoki 2,3 foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda 1 081,4 ming kishi (jami aholi soniga nisbatan 36,1 %), qishloq joylarda esa 1 912,7 ming kishi (63,9 %) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni 1 478,3 ming kishini (49,4 %), erkaklar esa 1 515,8 ming kishini (50,6 %) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni, ming kishi

	2024-yil	2025-yil	O'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	2 928,0	2 994,1	102,3
Termiz sh.	206,1	211,9	102,8
tumanlar:			
Oltinsoy	196,2	200,6	102,2
Angor	146,2	149,4	102,2
Bandixon	84,7	87,0	102,7
Boysun	126,4	128,8	101,9
Muzrabot	156,0	159,1	102,0
Denov	427,8	438,1	102,4
Jarqo'rg'on	242,5	247,6	102,1
Qumqo'rg'on	260,1	265,7	102,2
Qiziriq	126,1	128,8	102,1
Sariosiyo	231,4	236,4	102,2
Termiz	86,5	89,1	103,0
Uzun	191,3	195,6	102,2
Sherobod	213,9	217,8	101,8
Sho'rchi	232,8	238,2	102,3

Surxondaryo viloyatida 2025-yil 1-oktabr holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha 149,0 kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 3,3 kishiga ortgan (2024-yil 1-oktabr holatiga 1 kv.km.ga 145,7 kishi).

Aholi zichligi, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni




III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Viloyatimizda 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **61,1** ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **27,5** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar- sentabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **1,8 ming** nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **9,7** ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,4** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **68** nafarga kamaygan.


Tug'ilganlar va vafot etganlar soni, ming kishi



Viloyatimizda tirik tug'ilganlar soni 61,1 ming kishini, shundan o'g'il bolalar soni 31,5 ming kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan 51,6 %), qiz bolalar soni 29,6 ming kishini (48,4 %) va shahar joylarida 20,3 ming kishini (33,3%), qishloq joylarida 40,8 ming kishini (66,7 %) tashkil etdi.

Viloyatimizda vafot etganlar soni 9,7 ming kishini, shundan erkaklar 5,3 ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan 54,4 %), ayollar 4,4 ming kishini (45,6 %) va shahar joylarida 3,2 ming kishini (33,2 %), qishloq joylarida 6,5 ming kishini (66,8 %) tashkil qildi.

Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi




IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Viloyatimizda 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan nikohlar soni **14,0** ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti 6,3 promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan 0,1 ming birlikka kamaygan.

Nikohdan ajralishlar soni 2,4 ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti 1,1 promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan 0,2 ming birlikka ko'paygan.


Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, ming birlik



Viloyatda qayd etilgan nikohlar soni 14,0 ming birlikni, shundan shahar joylarida 4,9 ming birlikni (35,2 %), qishloq joylarida 9,1 ming birlikni (64,8 %) tashkil etdi.

Viloyatda nikohdan ajralishlar soni 2,4 ming birlikni, shundan shahar joylarida 1,0 birlikni (41,5 %), qishloq joylarida 1,4 birlikni (58,5 %) tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, birlik



V. Aholi migratsiyasi


2025-yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni 9 258 kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar 9 258 kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar mavjud emas.

Ko'chib ketganlar jami soni 12 113 kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar 12 091 kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar 22 kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Surxondaryo viloyati	9 258	9 258	-	12 113	12091	22
Termiz sh. tumanlar:	3 439	3 439	-	1 778	1774	4
Oltinsoy	182	182	-	564	564	-
Angor	565	565	-	572	572	-
Bandixon	230	230	-	331	331	-
Boysun	264	264	-	663	663	-
Muzrabot	369	369	-	753	752	1
Denov	674	674	-	1 065	1 059	6
Jarqo'rg'on	295	295	-	1 043	1 041	2
Qumqo'rg'on	480	480	-	902	900	2
Qiziriq	268	268	-	534	534	-
Sariosiyo	252	252	-	652	652	-
Termiz	1 256	1 256	-	1 052	1 051	1
Uzun	247	247	-	596	593	3
Sherobod	414	414	-	940	938	2
Sho'rchi	323	323	-	668	667	1

Jami ko'chib kelganlar va jami ko'chib ketganlar soni ming, kishi



VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Demografiya, mehnat va gender
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:
A. Astanaqulov
(55)451-80-00 (7570)
